Bosh miyaning chuqur venoz tizimi chuqur oq moddani, yon qorinchalar va uchinchi qorincha atrofidagi sohalarni hamda bazal sisternalarni drenaj qiladi [20,21,24,25]. Uchta vena Monro teshigi orqasida birlashib, ichki miya venalarini hosil qiladi. Ularga quyidagilar kiradi: xorioidal (tomir chigali) vena; septal vena; talamostriatal vena. Galen venasi qisqa vena bo'lib (uzunligi 1–2 sm), qadoqsimon tana (corpus callosum) valigi orqasidan orqaga va yuqoriga qarab, Bisha sisternasi tomon yo'naladi. Galen venasiga ichki miya venalari, Rozental bazal venalari, orqa kalla chuqurchasi venalari quyiladi. Keyinchalik qon to'g'ri sinusning oldingi qismiga oqadi, u esa pastki sagittal sinus bilan birlashadi. Shunday qilib, to'g'ri sinus chuqur venoz tizimning asosiy venoz kollektori hisoblanadi. Rozental bazal venasi ichki miya venalari va Galen venasi uchun muhim kollateral yo'l hisoblanadi. Yuzaki o'rta miya venasi bilan chuqur o'rta miya venasi orqali bog'lanish venoz qon oqimining to'g'ri sinusni chetlab o'tishiga imkon beradi.

Orqa kalla chuqurchasidan venoz qon oqimi asosan Galen tizimi hamda yuqori va pastki toshsimon sinuslar tizimiga bog'liq bo'lib, kamroq darajada tentorial venalar va ko'ndalang sinuslarga bog'liq [20,24,25,32]. Shu sababli Galen venasi tizimiga ta'sir qiluvchi omillar nafaqat orqa kalla chuqurchasida, balki chuqur

venoz tizim orqali qon yig'iladigan miya sohalarida ham venoz dimlanishga olib kelishi mumkin.

Alohida e'tibor ekstrakranial serebral venoz drenaj tizimiga qaratilishi lozim. Miya venoz qonining asosiy qismi bo'yin venalari orqali chiqib ketadi; bunda asosan ichki bo'yinturuq venasi (v. jugularis interna); chuqur bo'yin venalari; umurtqa venoz tizimi ishtirok etadi [5,11,23,26]. Shu sababli ekstrakranial venoz oqimning tuzilishi yoki funksiyasi buzilishi miya venoz drenajining yetishmovchiligiga va natijada nevrologik nuqsonlarning rivojlanishiga olib kelishi mumkin, deb hisoblash uchun yetarli asoslar mavjud.

Ichki bo'yinturuq venalari (IBV) bo'yindagi eng yirik venalar hisoblanadi va odatda miya venoz qon oqimining eng muhim yo'llari sifatida qaraladi. Yuzaki va chuqur serebral venoz tizimlardan keluvchi qon ko'ndalang sinuslar → sigmasimon sinuslar → ichki bo'yinturuq venalari orqali oqib chiqadi. Pastki toshsimon sinus kavernozi sinusdan qon olib chiqadigan asosiy yo'l bo'lib, ichki bo'yinturuq venasiga quyilishdan oldin bazilyar chigal, oldingi va lateral kondilyar emissar venalar hamda umurtqa venoz chigali bilan bog'lanadi [23,31]. Keyinchalik ichki bo'yinturuq venalar o'mrov osti venalari bilan birlashib, yelka-bosh venasini (v. brachiocephalica) hosil qiladi. Ikki yelka-bosh venasining qo'shilishidan yuqori kovak vena hosil bo'ladi. Shu vena orqali venoz qon oxir-oqibat yurakka tushadi. Bo'yinning ayrim venoz shoxlari ham ichki bo'yinturuq venaga quyiladi [9,16,29]. Ushbu shoxlar o'rta chiziq bo'ylab o'zaro birikib, anastomozlovchi chigallarni hosil qiladi. Ular asosiy venoz yo'llar orqali oqim buzilganda adekvat venoz drenajni saqlash uchun kollateral yo'l vazifasini bajarishi mumkin [9,16].

Umurtqa venoz tizimi quyidagilardan tashkil topadi: umurtqa venoz chigali, umurtqa venasi [2,17,18,]. Umurtqa venoz chigali ikki qismga bo'linadi: ichki umurtqa venoz chigali (oldingi ichki; orqa ichki chigallar), tashqi umurtqa venoz chigali (oldingi tashqi; orqa tashqi chigallar) [2,17,18,23].

Kranioservikal birikma sohasida miya venoz oqimi va umurtqa venoz tizimi o'rtasidagi murakkab bog'lanishlar ayrim angiografik tadqiqotlarda ko'rsatilgan [3,5,17,23]. Ichki bo'yinturuq venalari ham kranioservikal sohada boshqa ekstrakranial venoz drenaj tizimlari bilan anastomozlar hosil qilishi mumkin. Bu tizim tarkibiga oldingi kondilyar emissar venoz drenaj tizimi (OKEVD) va uning shoxlari kiradi. OKEVDning ko'plab anastomozlari uni kavernozi sinus, orqa kalla chuqurchasi sinuslari, ichki bo'yinturuq venasi, umurtqa venoz tizimi, chuqur bo'yin venalari tuzilmalari o'rtasidagi o'ziga xos "kesishma"ga aylantiradi.

Ichki bo'yinturuq venasidagi klapanlar yirik markaziy venalar va serebral venoz tizim o'rtasida bufer zonasi vazifasini bajaradi. Anatomik tuzilish variantlari turlicha bo'lishiga qaramay, klapanlar odatda o'mrov osti venasi va ichki bo'yinturuq venasi qo'shilish joyidan taxminan 0,5 sm yuqorida, ya'ni bo'yinturuq piyozchasining pastki qismida joylashadi [1,4,22,23,30]. Ichki bo'yinturuq vena klapanlari markaziy venoz bosim, ko'krak ichki bosimi oshgan holatlarda venoz qonning orqaga qaytishini va miya venoz tizimiga retrograd bosim o'tishini oldini oladi. Masalan, yurak-o'pka reanimatsiyasi vaqtida ko'krak qafasi siqilganda, kuchli yoki takroriy yo'talganda, zo'riqishda bu mexanizm ayniqsa muhimdir [1,4,16,23,30]. Ichki bo'yinturuq vena klapanlaridagi bosim gradienti 100 mm simob ustunigacha yetishi mumkin [16]. Agar klapanlar to'liq ishlamasa, ichki bo'yinturuq vena orqali uzoq davom etuvchi retrograd venoz bosim serebral

venoz oqimni buzishi va nevrologik yetishmovchilikka olib kelishi mumkin. Masalan, ichki bo'yinturuq vena klapan yetishmovchiligi yurak-o'pka reanimatsiyasidan keyingi ensefalopatiya bilan bog'langan [1,4,23,30].

Kollateral venalar, ehtimol, venoz tizimning fiziologik variantlari hisoblanadi. Ular ekstrakranial venoz tizimning asosiy yo'llari buzilganda kompensator ahamiyatga ega bo'lishi mumkin [14,38]. Bo'yinturuq venalaridan tashqari venoz tizim orqali miya venoz qoni oqimini ta'minlovchi ekstrayugulyar tizim asosan quyidagilardan tashkil topadi: umurtqa venoz tizimi, chuqur bo'yin venalari [5,10,11,13,19,22,23,26,30]. Tashqi bo'yinturuq venasi (TBV) va oldingi bo'yinturuq venasi (OBV) ichki bo'yinturuq venasidan farqli ravishda bo'yinda yuzaroq joylashadi. Ular kollateral yo'llar vazifasini bajaradi va asosiy venoz oqim yo'llari (ichki bo'yinturuq vena va umurtqa venalari) buzilganda kengayib, bo'yinda ko'zga tashlanadigan bo'lib qoladi [15,31]. Tashqi bo'yinturuq venasi orqa yuz venasining orqa shoxi va quloq orqa venasi qo'shilishidan hosil bo'ladi. Odatda u o'mrov osti venasi va ichki bo'yinturuq vena qo'shilish joyiga quyiladi [9]. Oldingi bo'yinturuq venasi esa yuzaki venalar, tashqi bo'yinturuq venasi, yuz venalari yoki ichki bo'yinturuq venadan qon qabul qiladi. Odatda u o'mrov osti venasiga yoki tashqi bo'yinturuq venaga quyiladi [9]. Ikki tomonlama oldingi bo'yinturuq venalari ko'krak suyagi ustida joylashgan bo'yinturuq venoz yoyi orqali o'zaro bog'lanishi mumkin. Ushbu yoy qalqonsimon bezdan keluvchi pastki qalqonsimon venalar orqali shoxlarni qabul qiladi [6,27]. Shunday qilib, bo'yin sohasidagi venoz kollateral tizim oldingi qismda (bo'yinturuq venalar tizimi), orqa qismda (umurtqa va boshqa chuqur bo'yin venalari tizimi)dan tashkil topadi. Turli shakldagi kollateral tuzilmalar venoz oqimning to'silish joyi va darajasiga ta'sir qilishi mumkin.

Bosh ichi bosimi (BIB) shakllanishida venoz qon hajmi muhim tarkibiy qism hisoblanadi. Aslida bemorlar bildiradigan shikoyatlar ko'pincha gipertenziya bilan bog'liq bo'lib, ya'ni bosh ichi bosimining oshishi bilan izohlanadi. Kalla bo'shlig'idan venoz qon chiqishining qiyinlashuvi miya qon tomirlarining qon bilan to'lishib ketishiga, venoz kelib chiqishga ega bo'lgan bosh ichi bosimining oshishiga olib keladi. O'z navbatida, turli sabablar tufayli bosh ichi bosimining oshishi serebral venoz bosimning ko'tarilishi bilan kechadi. Bunday sabablarga quyidagilar kiradi: o'tkir gipertenziv ensefalopatiya, og'ir insultlar, miya parenximasidagi hajmli hosilalar natijasidagi "massa-effekt" (shish, o'sma, qon quyilishi va boshqalar), arterial gipertenziyada doimiy arterial giperemiya va serebral perfuzion bosimni boshqarish mexanizmlarining yetishmovchiligi, gipersektor gidrotsefaliyada likvor bosimining oshishi [7,14,17]. Gipertenziv ensefalopatiyalii bemorlarda arterial gipertenziya natijasida qon hajmiga tushadigan yuklama oshishi sababli venoz qon aylanishining qaytmas buzilishlari rivojlanadi. Bu holat ichki bo'yinturuq vena pastki piyozchasining kengayishi bilan namoyon bo'ladi [53]. Miya sinuslaridagi bosim oshganda (venoz dimlanish) reflektor tarzda yirik arteriyalar torayadi, bu esa tizimli arterial bosimning oshishiga sabab bo'lishi mumkin.

Bosh miya venoz qon aylanishining buzilishiga olib keluvchi sabablarni bir necha guruhlariga ajratish mumkin: tizimli sabablar (markaziy venoz oqim mexanizmlarining buzilishi, tizimli flebogipertenziya); Regional sabablar, ular o'z navbatida kalla ichi (intrakranial) hamda kalla tashqarisi (ekstrakranial) sabablariga bo'linadi [10]. Tizimli serebral venoz distoniya (venoz dimlanish) — miya venoz qon aylanishi buzilishlarining eng ko'p uchraydigan surunkali shakli

hisoblanadi [18]. Intrakranial venoz dimlanish quyidagi patologik jarayonlar bilan kechadi: serebral venoz distoniya, venalar bo'shlig'ining torayishi, venoz tonus boshqarilishining buzilishi, dimlanish-gipoksik o'zgarishlar. Bu jarayonlar keyinchalik serebral venoz disfunktsion va gipoksik buzilishlarning rivojlanishiga olib keladi [15]. Serebral venoz distoniya rivojlanishiga moyil qiluvchi omillarga arterial gipertenziya, arterial gipotoniya, ayniqsa miya tomirlarining autoregulyatsiya mexanizmlari yetishmovchiligi mavjud bo'lgan holatlar kiradi.

Intrakranial venoz oqim buzilishining boshqa sabablariga quyidagilar kiradi: bosh suyagi jarohatlaridan keyingi holatlar, araxnoiditlar, qattiq miya pardasi venalari va sinuslari trombozi, bosh miya o'smalari, miya suvi (gidrotsefaliya) va kraniostenozda intrakranial venalarning siqilishi. Intrakranial patologiyalar yuzaki venalardan qon chiqishini qiyinlashtirib, ko'prik venalarning ("manjetka" shaklida) siqilishiga sabab bo'lishi mumkin. Natijada chuqur miya venalari orqali qon oqimi kompensator ravishda kuchayadi [30].

Ekstrakranial (braxiosefalik) patologiyalar braxiosefalik venalar tuzilishidagi anomaliyalar, bo'yin va ko'krak qafasining yuqori aperturasi sohasida venalarning siqilishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Mushak spazmlari, jarohatdan keyingi suyak va boylam tuzilmalarining o'zgarishi, o'smalar, ko'ks oralig'idagi (mediastinum) patologik jarayonlar, qalqonsimon bezning kattalashishi, aorta anevrizmasi venoz siqilishga sabab bo'lishi kuzatiladi. Bundan tashqari, bu holat yurak yoki yurak-o'pka yetishmovchiligi oqibatida ham rivojlanishi mumkin: yurak ishemik kasalligi, kardiomiopatiyalar, aritmiyalar, surunkali obstruktiv o'pka kasalligi, pnevmoniyalar va boshqalar. Braxiosefalik venalar patologiyasi tug'ma (tuzilish yoki hajm anomaliyalari, gipoplaziya, anevrizma, arteriya va venalarning noto'g'ri joylashuvi) yoki orttirilgan (siqilish, tromboz, klapanlarning ikkilamchi yetishmovchiligi) bo'lishi mumkin [31].

Umurtqa arteriyasi va umurtqa venalarining ekstrakranial qismi bo'yin umurtqalarining ko'ndalang o'simtalaridagi teshiklardan hosil bo'lgan tor va harakatchan suyak kanal ichidan o'tadi. Hatto kichik suyak o'sib chiqishlari ham qon-tomir nerv tutamini shikastlashi mumkin. Bunda tomir to'g'ridan-to'g'ri siqiladi; simpatik nerv chigali ta'sirlanadi. Qon-tomir nerv tutamiga quyidagilar ham ta'sir qilishi mumkin: umurtqalararo disklar; oldingi va orqa bo'yilama boylamlar. Bo'yin umurtqa pog'onasidagi degenerativ-distrofik o'zgarishlar vertebrobazilyar tizimda venoz oqim buzilishining eng ko'p uchraydigan sabablaridan biridir. Asosiy patologik jarayonlar: osteoxondroz, deformatsiyalovchi spondilyoz, deformatsiyalovchi spondiloartroz, birlamchi deformatsiyalovchi umurtqa osteoartrozi, umurtqa boylamlarining ossifikatsiyasi (Foresye kasalligi). Umurtqa arteriyasi va venalariga patologik ta'sir ko'rsatadigan boshqa omillar: unkovertbral artroz, umurtqa segmentining patologik harakatchanligi. Bo'yin mushak-tonik buzilishlari ekstrakranial venalarga reflektor va mexanik ta'sir ko'rsatib, serebral venoz disirkulyatsiya shakllanishiga sabab bo'lishi mumkin. Bu holat boshning pastki qiyshiq mushagi va oldingi narvonsimon mushakning tonik qisqarishi natijasida umurtqa arteriyasining siqilishi bilan bog'liq [18,22,24,26].

Surunkali miya ishemiyasi (SMI) arterial yoki venoz kelib chiqishga ega bo'lishi mumkin, ko'pincha esa ushbu ikki omil birgalikda ishtirok etadi. Venoz qon aylanishidagi o'zgarishlar bosh miya qon-tomir kasalliklari rivojlanishining muhim

patogenetik mexanizmlaridan biri bo'lib, ayrim holatlarda SMI ning mustaqil sababi bo'lishi mumkin. Ko'plab tadqiqotlar SMI rivojlanishi bilan venoz dimlanish o'rtasida yuqori darajadagi bog'liqlik mavjudligini ko'rsatgan [24]. Ma'lumki, surunkali miya ishemiyasining asosiy etiologik omillari serebral ateroskleroz, gipertoniya kasalligi hisoblanadi. Bosh miya asosiy arteriyalari va yirik intrakranial arteriyalarning aterosklerotik zararlanishi okklyuziyalar, stenozlar, aterotrombozlar bilan kichadi. Gipertoniya kasalligida esa ko'proq zararlanish joyi terminal qon aylanish sohasi, ya'ni terminal arteriyalar va arteriolalar darajasi hisoblanadi. Miya arteriyalarida qon aylanishi buzilganda venoz oqim ham ma'lum darajada zarar ko'radi. Xuddi shuningdek, miya venalari patologiyasi arterial gemodinamika va miya metabolizmining buzilishiga olib keladi. Venoz disgemiya o'z navbatida surunkali miya ishemiyasi patogeneza muhim rol o'ynaydi, chunki: funksional venoz distoniya → reflektor intratserebral arteriyalar torayishi → miyaga qon kelishining kamayishi jarayonini yuzaga keltiradi [27, 29]. Bu ikki jarayon bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Serebral ishemiya sharoitida miyaga keluvchi qon oqimining kamayishi miya tuzilmasida o'zgarishlar, distrofik jarayonlarning rivojlanishiga olib keladi. Bunday fon sharoitida yuqori sagittal sinus lakunallari sklerozi sababli yuzaki venoz tarmoq orqali qon oqimi qiyinlashadi. Natijada qon venoz mikrosirkulyator o'zanda to'planadi va venoz dimlanish yuzaga keladi. Venoz dimlanishni kamaytirish uchun chuqur venoz tizim orqali qo'shimcha oqim yo'llari kompensator tarzda kuchayib ishlay boshlaydi.

Kapillyar tizimning venoz qismida bosim oshishi uning arterial qismidagi qon oqimini qiyinlashtiradi. Bu esa arteriolo-venulyar anastomozlarning ochilishiga, qonning venoz o'zakka qisqaroq yo'l orqali o'tishiga sabab bo'ladi. Natijada venoz qonning arterializatsiyasi, to'qimalarda gipoksiya rivojlanadi. Serebral venoz distoniyaning kuchayishi miya metabolizmining jiddiy buzilishi, gipoksiya, ishemiyaning kuchayishi bilan kechadi. Venoz oqim qiyinlashganda ikkilamchi likvor bosimi oshishi kuzatiladi.

Likvor (miya-orqa miya suyuqligi) harakati asosan orqa miya suyuqligi va venoz qon o'rtasidagi musbat gidrostatik bosim gradient ta'sirida amalga oshadi. Araxnoidal so'rg'ichlar klapan vazifasini bajarib, likvor bo'shlig'idan qonga suyuqlik o'tishini ta'minlaydi; teskari oqimning oldini oladi. Shunday qilib: venoz–arterial disbalans → venoz–likvor disbalansi → likvor bosimining ikkilamchi oshishi → bosh ichi bosimining ko'tarilishiga olib kelishi mumkin.

Miya gipoksiyasida, sababidan qat'i nazar (o'tkir yoki surunkali holatlarda), o'zaro bog'langan patologik reaksiyalardan iborat ishemik kaskad rivojlanadi. Gipoksiya natijasida rivojlanadigan ensefalopatiya patogeneza asosiy bo'g'inlari: miya mikrogemotsirkulyatsiyasining buzilishi; miya faoliyatini ta'minlash uchun energiya resurslarining yetishmovchiligi; glutamat eksaytotoksikligi. Glutamatergik retseptorlarning ortiqcha faollashuvi natijasida neyronlarga kalsiy va natriy ionlari ko'p miqdorda kiradi, hujayra membranasi depolyarizatsiyasi yuz beradi, kuchlanishga bog'liq kalsiy kanallari faollashadi, hujayra ichida kalsiy to'planadi. Natijada quyidagi zararli biokimyoviy jarayonlar rivojlanadi: laktat atsidoz, hujayra ichki fermentlarining faollashuvi, azot oksidi sintezining oshishi, oksidlovchi stress. Erkin radikallar hosil bo'lishining kuchayishi nevrologiyadagi ko'plab patologik holatlarda uchraydigan universal patofiziologik jarayon hisoblanadi.

Gipoksik holatlarda miya zararlanishining boshlanishi va rivojlanishida mikrosirkulyator buzilishlar muhim ahamiyatga ega. Mikrosirkulyatsiya buzilishining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilar hisoblanadi: qonning gemoreologik xususiyatlarining o'zgarishi; gematokrit miqdorining oshishi; qon yopishqoqligining ortishi; fibrinogen miqdorining ko'payishi; trombositlarning agregatsiyasi va adgeziyasi kuchayishi; eritrotsitlarning agregatsiyasi; leykotsitlarning tomir devoriga yopishishi va boshqalar. Bunda, ayniqsa, kapillyarlar diametri va eritrotsitlar hajmi o'rtasidagi noqulay nisbat hisobga olinganda, eritrotsitlarning morfofunktsional holatidagi o'zgarishlar katta patogenetik ahamiyatga ega. Eritrotsitlarning elastiklik va deformatsiyalanish xususiyatlarining yaxshilanishi kislorodning eritrotsit membranasi orqali tashilishini yaxshilaydi. Aksincha, eritrotsitlarning deformatsiyalanish qobiliyati pasayishi mikrosirkulyator o'zakda qon dimlanishiga, natijada to'qima gipoksiyasi rivojlanishiga sabab bo'ladi [28]. Eritrotsit shaklini belgilovchi asosiy omillardan biri uning membranasi hisoblanadi. Membrana quyidagi xususiyatlarga ega: elektrofiziologik ko'rsatkichlar; sorbsion qobiliyat; nospetsifik

o'tkazuvchanlik va boshqalar. Qon oqimida eritrotsitlar sonining ko'pligi, ularning katta adsorbsion yuzasi hamda plazma bilan xolesterin almashinuvi kuchliligi eritrotsit-plazma xolesterin almashinuvining katta zaxirasini hosil qiladi. Dislipidemiya holatlarida surunkali miya ishemiyasining rivojlanishi eritrotsitlarning morfofunktsional holati buzilishi bilan chambarchas bog'liqligi aniqlangan. Bu quyidagilar bilan bog'liq: eritrotsit membranasi xolesterin to'planishi; eritrotsitlarning agregatsion qobiliyati oshishi.

Bosh miya venoz qon aylanishining surunkali yetishmovchiligi, xuddi arterial qon aylanish yetishmovchiligi kabi, miya ishemiyasiga olib keladi. Shu sababli surunkali arterial kelib chiqadigan miya ishemiyasida qo'llaniladigan farmakoterapiyaning asosiy yo'nalishlari venoz ensefalopatiyada ham qo'llanishi mumkin. Biroq kalla bo'shlig'idagi arterial qon hajmini oshiruvchi serebrovaskulyar preparatlarni buyurishda ehtiyot bo'lish kerak [30,32]. Serebral venoz patologiyaning surunkali shakllarini erta aniqlash va davolash bemorlarning hayot sifatini yaxshilashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akkawi NM, Agosti C, Borroni B, Rozzini L, Magoni M, Vignolo LA, Padovani A: Jugular valve incompetence: a study using air contrast ultrasonography on a general population. *J Ultrasound Med.* 2002, 21: 747-751.
2. Andeweg J: The anatomy of collateral venous flow from the brain and its value in aetiological interpretation of intracranial pathology. *Neuroradiology.* 1996, 38: 621-628.
3. DT Hodzhieva, SS Pulatov, DK Hajdarova Vse o gemorragicheskom insulte lic pozhilogo i starcheskogo vozrasta. [All about hemorrhagic stroke of elderly and elderly people] *Nauka molodyh-Young Science.* 2015. 87-96.
4. Brownlow RL, McKinney WM: Ultrasonic evaluation of jugular venous valve competence. *J Ultrasound Med.* 1985, 4: 169-172.
5. Khaydarova Dildora Kadirovna, Khodjyeva Dilbar Tadiyevna, Bobokulov Gulmurod Dilmurodovich. Optimization Of Neuroprotective Therapy Of Ischemic Stroke In The Acute Period. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine.* Volume 07, Issue 03, 2020. P. 3720-3723 Chasen MH, Charnsangavej C: Venous chest anatomy: clinical implications. *Eur J Radiol.* 1998, 27: 2-14.
6. Chung C, Hu H: Jugular venous reflux. *J Med Ultrasound.* 2008, 16: 210-222.
7. Chung CP, Hsu HY, Chao AC, Sheng WY, Soong BW, Hu HH: Transient global amnesia: cerebral venous outflow impairment-insight from the abnormal flow patterns of the internal jugular vein. *Ultrasound Med Biol.* 2007, 33: 1727-1735.
8. DT Hodzhieva, SS Pulatov, DK Hajdarova Vse o gemorragicheskom insulte lic pozhilogo i starcheskogo vozrasta (sobstvennye nabljudeniya) [All of hemorrhagic stroke in elderly persons (own observations)]. *Nauka molodyh (Eruditio Juvenium) [Science of the young (Eruditio Juvenium)].* 2015. 87-96
9. Doepp F, Hoffmann O, Schreiber S, Lammert I, Einhaupl KM, Valdueza JM: Venous collateral blood flow assessed by Doppler ultrasound after unilateral radical neck dissection. *Ann Otol Rhinol Laryngol.* 2001, 110: 1055-1058.
10. Khaydarova Dildora Kadirovna, Xaydarov Nodirjon Kadirovich, Khodjyeva Dilbar Tadiyevna. Clinical basis for the development of neuroprotective therapy in acute ischemic stroke. *International Journal of Health Sciences,* 4177-4183. 2022
11. Doepp F, Valdueza JM, Schreiber SJ: Incompetence of internal jugular valve in patients with primary exertional headache: a risk factor?. *Cephalalgia.* 2008, 28: 182-185.
12. Dolic K, Marr K, Valnarov V, Dwyer MG, Carl E, Hagemeyer J, Kennedy C, Brooks C, Kilanowski C, Hunt K, Hojnacki D, Weinstock-Guttman B, Zivadinov R: Sensitivity and specificity for screening of chronic cerebrospinal venous insufficiency using a multimodal non-invasive imaging approach in patients with multiple sclerosis. *Funct Neurol.* 2011, 26: 205-214.
13. Dolic K, Siddiqui A, Karmon Y, Marr K, Zivadinov R: The role of noninvasive and invasive diagnostic imaging techniques for detection of extra-cranial venous system anomalies and their development variants. *BMC Med.* 2013, 11: 155.
14. Escott EJ, Branstetter BF: It's not a cervical lymph node, it's a vein: CT and MR imaging findings in the veins of the head and neck. *Radiographics.* 2006, 26: 1501-1515.
15. Khaydarova Dildora Kadirovna, Khodjyeva Dilbar Tadiyevna, Bobokulov Gulmurod Dilmurodovich. Optimization Of Neuroprotective Therapy Of Ischemic Stroke In The Acute Period. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine.* Volume 07, Issue 03, 2020. P. 3720-3723
16. Ginsberg LE: The posterior condylar canal. *AJNR Am J Neuroradiol.* 1994, 15: 969-972.

17. Khaydarova Dildora Kadirovna, Xaydarov Nodirjon Kadirovich, Khodjyeva Dilbar Tadjiyevna. Clinical basis for the development of neuroprotective therapy in acute ischemic stroke. *International Journal of Health Sciences*. 2022. P 4177-4183
18. McTaggart RA, Fischbein NJ, Elkins CJ, Hsiao A, Cutalo MJ, Rosenberg J, Dake MD, Zaharchuk G: Extracranial venous drainage patterns in patients with multiple sclerosis and healthy controls. *AJNR Am J Neuroradiol*. 2012, 33: 1615-1620.
19. Бабенков Н.В. Нарушение венозного кровообращения головного мозга: патогенез, клиника, течение, диагностика (обзор литературы) // Журнал неврологии и психиатрии имени С. С. Корсакова. 1984. Том 84. выпуск 2. С. 281–288.
20. Бабенков Н.В., Шмырев В.И., Клиника и течение окклюзирующих процессов в поперечных синусах мозга // Мат. VIII Всероссийского съезда неврологов. Казань, 2001. С. 198–199.
21. Бердичевский М.Я. Венозная дисциркуляторная патология головного мозга М.: Медицина, 1989. –224 с.
22. Бердичевский М.Я., Музлаев Г.Г., Литвиненко Д.В., Шагал Л.В., Рыжий А. В. Современные аспекты диагностики и лечения нарушений венозного кровообращения головного мозга // Неврологический журнал. 2004. Т.9. №2. С. 11–17.
23. Виберс Д., Фейгин В., Браун Г. Руководство по цереброваскулярным заболеваниям. Пер. с англ. Москва: БИНОМ; 1999. 672 с.
24. Гусев Е.И. // Журн. невропатологии и психиатрии. 2003. № 9. С. 3–7.
25. Гусев Е.И., Скворцова В.И. Ишемия головного мозга. М.: Медицина, 2001. 328 с.
26. Исайкин А.И, Горбачева Ф.Е. Состояние внутримозговой (артериальной и венозной) и каротидной гемодинамики у больных с тяжелой легочной патологией // Журнал неврологии и психиатрии им. С.С. Корсакова. 1999. №99(7) С. 12–15.
27. Лесницкая В.Л., Яровая И.М., Петровский И.Н., Завгородняя Г.П. Венозная система головного и спинного мозга в норме и патологии. Москва: Медицина; 1970. 222 с.
28. Манвелов Л.С. Кадыков А.В. Венозная недостаточность мозгового кровообращения (лекция) // Атмосфера. Нервные болезни. 2007. №2. С. 18-21.
29. Семенов С. Е. Диагностика нарушений церебрального венозного кровообращения (обзор) // Сиб. мед. журн. 2001. №1. С. 63–72.
30. Федин А.И. и соавтр. Венозная энцефалопатия // Невроньюс спецвыпуск 2017
31. Фурсова Л.А. Тромбозы церебральных вен и синусов // *ARS Medicine*. 2009. №3(13). С. 106–118.
32. ДТ Ходжиева, НК Хайдаров, ДК Хайдарова Коррекция астеноневротического синдрома энергокорректором цитофлавином. *Неврология*. –Ташкент, 16-19. 2013.

ЖУРНАЛ НЕВРОЛОГИИ И НЕЙРОХИРУРГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF NEUROLOGY AND NEUROSURGERY RESEARCH

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000